

THE SPECIFICS OF THE IMPLEMENTATION OF THE PEDAGOGICAL INNOVATIVE CLUSTER APPROACH IN THE SYSTEM OF CONTINUING EDUCATION

Nargiza Talipjanovna Madgapilova

Teacher of the Department "Psychology" Chirchik State Pedagogical University

nargizamadgapilova@gmail.com

Abstract:

This article notes that the demand for innovation is higher than ever in the world today – new knowledge and original technological solutions, analyzed the features and possibilities of introducing an innovative educational cluster in continuing education and the scientific justification of its specific capabilities as the main factors for improving the quality and effectiveness of education in society, as well as the effectiveness of the cluster approach in the school and preschool education system and the task of creating pedagogical innovations as a regional educational cluster and theoretical aspects the development of this area.

Keywords: Continuing education system, MTT, School, cluster, pedagogical technology, education, logistics, integration, innovation, social and economic development, community development, scientific, social, technological, production, HEIs , the continuity of theoretical and practical programs, cultural and educational activities, the principle of social partnership in the field of education, a prospective educational program.

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOGIK INNOVATSION KLASTER YONDASHUVNI JORIY ETISHNING O'ZIGA XOSLIGI

Nargiza Talipjanovna Madgapilova

“Psixologiya” kafedrası o‘qituvchisi, Chirchiq davlat pedagogika universiteti

nargizamadgapilova@gmail.com

Annotatsiya:

Mazkur maqolada bugungi kunda dunyoda innovatsiyalarga – yangi bilimlar va original texnologik yechimlarga bo‘lgan talab har doimgidan ham yuqori ekanligi, uzluksiz ta’limda innovatsion ta’lim klasterini joriylantirish va uning o‘ziga xos imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslab berish, jamiyatda ta’lim sifati va samaradorligini oshirishning asosiy omillari sifatidagi xususiyat va imkoniyatlari, shuningdek, maktab va maktabgacha ta’lim tizimida klaster yondashuvining samaradorligini va mintaqaviy ta’lim klasteri sifatida pedagogik innovatsiyalarni yaratish vazifasi va bu sohaning rivojlanishi nazariy jihatlari tahlil etilgan.



Kalit soʻzlar: Uzluksiz taʼlim tizimi, MTT, Maktab, klaster, pedagogik texnologiya, taʼlim-tarbiya, logistika, integratsiya, innovatsiya, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot, jamiyat rivoji, ilmiy, ijtimoiy, texnologik, ishlab chiqarish, OTM, nazariy va amaliy dasturlarning uzluksizligi, madaniy-tarbiyaviy taʼlim faoliyati, taʼlim sohasida ijtimoiy sheriklik tamoyili, istiqbolli taʼlim dasturi.

СПЕЦИФИКА ВНЕДРЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИННОВАЦИОННОГО КЛАСТЕРНОГО ПОДХОДА В СИСТЕМЕ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация:

В данной статье отмечается, что сегодня в мире как никогда высок спрос на инновации – новые знания и оригинальные технологические решения, проанализированы особенности и возможности внедрения инновационного образовательного кластера в непрерывном образовании и научное обоснование его специфических возможностей, в качестве основных факторов повышения качества и эффективности образования в обществе, а также эффективность кластерного подхода в системе школьного и дошкольного образования и задача создания педагогических инноваций как регионального образовательного кластера и теоретические аспекты развития данной сферы.

Ключевые слова: система непрерывного образования, дошкольная образовательная организация, Школа, кластер, педагогические технологии, образование, логистика, интеграция, инновации, социально-экономическое развитие, развитие общества, научное, социальное, технологическое, производственное, вузовское, преемственность теоретических и практических программ, культурно-образовательная деятельность, образование в области принцип социального партнерства, перспективная образовательная программа.

Key words: Continuing education system, preschool educational organization, School, cluster, pedagogical technologies, education, logistics, integration, innovation, socio-economic development, social development, scientific, social, technological, industrial, university, continuity of theoretical and practical programs, cultural and educational activities, education in the field of the principle of social partnerships, a promising educational program.

Bugungi kunda dunyoda innovatsiyalarga – yangi bilimlar va original texnologik yechimlarga boʻlgan talab har doimgidan ham yuqori boʻlmoqda. Shu nuqtai nazardan ilmiy resurslarga ustunlik berish, ilmiy fanni yangi zamonaviy modellar asosida tashkillashtirish dominant manbaiga aylandi.

Innovatsion taʼlim tizimi tomonidan yaratilgan barcha “mahsulot” kishilik jamiyati taraqqiyotining markaziy boʻgʻini boʻlib, mohiyati va mazmun jihatdan muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu nuqtai nazardan olib qaraydigan boʻlsak, milliy innovatsion tizimning, jumladan, taʼlim sohasida ham paydo boʻlishi va muvaffaqiyatli faoliyat koʻrsatishi klaster yondashuviga

asoslanganligini ijtimoiy ahamiyatga egadir. Bu jarayon nazariy va amaliy hamda fan va amaliyotda klasterlarni yaratish, boshqarish orqali jamiyatni rivojlantirish, uning farovonligi ta'minlash, kadrlar raqobatbardoshligini oshirishning yangi imkoniyatlarini izlash va amalga oshirish yo'li sifatida e'tirof etilmog'i lozim.

Ta'limda klaster tushunchasining mohiyati ta'lim sub'ektlari va uni rivojlanishiga mas'ul bo'lgan davlat va nodavlat tashkilotlar o'rtasida o'zaro hamkorlik masalalarini tizimli yo'lga qo'yish bo'lib, ko'zlangan maqsad yuqori samara va aniq natijani taqozo etadi. Shuningdek, ma'lum xususiyatlarga ega mustaqil birlik sifatida ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan bir nechta xar xil elementlarning birligini anglatadi.

Pedagogik ta'lim innovatsion klasterlarini rivojlantirishning yo'nalishlarini belgilash, shuningdek, klaster siyosati chora-tadbirlarini maktab va MTT miqyosida amalga oshirish bo'yicha tajribalar o'tkazish ijtimoiy pedagogik zaruratdir.

Mazkur masala jamiyatimizda klaster siyosatining elementlari uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasiga kiritilgan.

Ushbu konsepsiya ta'lim tizimida raqobatbardoshlik salohiyatini ro'yobga chiqaradigan tizimli yondashuv klasterlari tarmog'ini yaratishni nazarda tutgan. Shu sababli, ta'lim tizimi nazariyasi va amaliyotining eng dolzarb vazifasi butun mamlakat o'quv yurtlari alohida tarmoqlarni rivojlantirishga nisbatan klasterli yondashuvni amalga oshirish yo'llari va imkoniyatlarini ilmiy izlashdir. Klasterlarni rivojlantirish va klaster yondashuvi juda istiqbolli ko'rinadigan sohalardan biri bu ta'limdir. Bu yerda klaster yondashuvi bir necha darajalarda amalga oshirilishi mumkin: tizimli, hududiy va mintaqaviy.

Mazkur maqola maqsadlari bilan bog'liq holda, biz o'quv predmeti va ta'lim muassasasi doirasida tuzilgan klasterlarni ko'rib chiqamiz. Ta'lim tizim sifatida institutsional tuzilmalar yig'indisi bo'lib, ularning asosiy maqsadi o'quvchilarni ularda tarbiyalashdir. Shu ma'noda, u ma'lum bir geografik hududdagi barcha darajadagi ta'lim muassasalari, korxonalar - resurslarni yetkazib beruvchilar va ish beruvchilar, shuningdek, faoliyati bilan o'zaro bog'liq bo'lgan muvofiqlashtiruvchi organlar va hokimiyat organlari yig'indisi bo'lgan ta'lim klasterining yadrosidir. Bunda maktab va MTT tarmoqlari muvofiqligi va logistikasini innovatsion yondashuvga yo'naltirish bosh maqsad etib belgilangan.

Biroq, ta'limda klaster yondashuvini bunday tushunish faqat davlat yoki uning sub'ekti darajasida amalga oshiriladi.[7] Bu yerda davlat darajadagi ta'lim tizimidagi klasterlashning eng yorqin omillari keltirilgan.

Muayyan hudud darajasida gap, asosan, ta'lim muassasalarini ham o'z ichiga olgan klaster yaratish g'oyasi belgilangan hududlarni rivojlantirish dasturlari haqida bormoqda. Qoida tariqasida, biz mintaqaning muayyan muammolarini hal qilish uchun zarur bo'lgan "maktab-MTT" tizimidagi integratsiya haqida ilmiy mulohazani ilgari suramiz.

Biroq, biz ijtimoiy klasterning barcha asosiy identifikatsiya xususiyatlarini ochib beradigan ta'lim tashkilotlari ishtirokida guruhlashning boshqa variantlari mavjudligi haqida gapirishimiz mumkin:

- ixtisoslashtirilgan (ta'lim) tashkilotlarning tarmoq tuzilmasi;
- ushbu tashkilotlarning bir joyda jamlanishi, faoliyat va hududlarda ular o'rtasidagi raqobat va hamkorlik;



- klaster elementlari o'rtasida bilim va texnologiyalar almashinuvini ta'minlovchi rivojlangan infratuzilma;
- klasterning moslashuvchan (plastik) tarkibi va tuzilishi;
- klasterning tizim sifatida ochiqligi.

Bundan ko'zlangan maqsad maktab va MTT ta'lim tizimini innovatsion rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni ta'minlash.

O'zbekistonda mamlakat ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotining eng muhim shartlaridan biri – jamiyat rivoji talablariga to'la javob bera oladigan malakali mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan mukammal uzluksiz ta'lim tizimi hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uzluksiz ta'lim tizimida muhim o'rin tutadi. U yerda ta'lim-tarbiya olayotgan tarbiyalanuvchilarni maktabga tayyorlash masalasi bugungi kunda uni yanada takomillashtirish zarurati yuzaga kelganini ko'rsatmoqda. Shu bois, bolalar bilan olib boriladigan ishlarini qaytadan ko'rib chiqish, ularni ongli va mustaqil kasb tanlashga tayyorlash bu masalaga o'zini mas'ul degan tashkilotlarning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Shu jihatdan qaraganda, maktabgacha yoshdagi bolalarni kasb-hunar tanlashga tayyorlash masalasiga e'tiborli bo'lish, ularning ma'lum bir kasb-hunarga nisbatan bo'lgan layoqat, moyillik, iqtidor, iste'dod, qobiliyat, qiziqish va aql-zakovatiga ahamiyat berishda ota-onalar, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining mas'uliyatini oshirish va ularning ijtimoiy hamkorligini ta'minlash talab etiladi.

Shuning uchun ayni paytda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining samarali faoliyat yuritishi va yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish uchun unga zamonaviy usullarni tatbiq qilish zarurati paydo bo'layapti. Shunday innovatsion usullardan biri – klasterdir.

Mazkur atama kompyuter muhandisligida, musiqa, ta'lim, astronomiya, iqtisodiyot kabi sohalarda qo'llaniladi va vazifasi jihatidan bir-biriga bog'liq va bir "marjon"dek tizilgan ob'ektlarga nisbatan qo'llaniladi.

Bugungi kunda ta'limda "klaster" tushunchasi faqat metod doirasida qo'llanib kelingan. Klasterni yaxlit tizim sifatida ta'limga joriy etish masalasi ilmiy izlanishlar va tadqiqotlarni kutib turibdi.

Ayrim olimlar nazariyalarida klasterlar (iqtisodiyotda) – ishlab chiqaruvchilar raqobat ustunligini oshirishda yuqori samarali bo'lib, ularning hududdagi ta'lim, fan, texnologik, iqtisodiy va boshqa xizmat ko'rsatuvchi sub'ektlar faoliyati bilan uyg'unlashgan tizimi ekanligi ta'kidlanadi.

Klasterning amaliy ahamiyati mamlakatlar, tarmoqlar va korxonalar iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirish va yuqori samaradorlikka erishishni nazarda tutadi.

"Klaster" nazariyasi rivojlanishidan uning ikki fundamental tavsifini ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchisi, klasterga uyg'unlashgan korxonalar va firmalar faoliyati aniq bir xil turdagi tovarlar bozori bilan bog'liq bo'lishi zarur. Bunday bog'liqlik vertikal (xarid va sotish zanjiri) va gorizontal (qo'shimcha bo'limlar va xizmatlar, shunga ketadigan maxsus sarflar, texnologiyalar yoki institutlar va boshqa aloqalardan foydalanish) bo'ladi.

Ikkinchisi – klasterlar geografik yaqin joylashgan o'zaro bog'liqlikdagi korxonalar



guruhi bo'lib, ular o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarni barqarorlashishi natijasida raqobatbardoshlikning rivojlanishi, ko'proq qo'shimcha qiymatni yaratishiga va bozorda sotilishiga imkoniyatlar yaratishdir.

Pedagogikada klaster quyidagi tushunchalarni anglatadi:

O'quv-ishlab chiqarish majmualari yordamida ish beruvchi va ta'lim muassasalari hamkorligi.

Maktab klasteri: "Har bir klasterda tayanch maktabi pedagogik hamkorlar (hamroh maktablar), ijtimoiy hamkorlar (oliy ta'lim muassasalari, kutubxonalar, OAVlar)ga ega.

Kasbiy klaster: Klaster – bir-biriga bog'liq bo'lgan ta'limiy, madaniy, ilmiy, ijtimoiy, texnologik va ishlab chiqarish tashkilotlarni birlashtirgan madaniy-tarbiyaviy tizimdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida klaster tizimini tashkil etish va tarbiyalanuvchilarni maqsadli kasbga yo'naltirish:

MTT yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojini yanada to'liqroq qondirish uchun maqsadli tayyorlash tashkillashtiriladi.

MTT talablariga muvofiq o'quv-ishlab chiqarish majmualarining maqsadli o'quv rejasi, o'quv fanlari, maxsus kurslarini shakllantiradi. Oliy ta'lim muassasalari bitiruv imtihonlarda tashkil etilgan kengashlarida, attestatsiya komissiyalarida, bo'sh ish o'rinlari yarmarkalarida faol qatnashadi.

MTT o'z sohalari bo'yicha maxsus loyihalar, stipendiyalar hamda konkursnlarni tashkillashtiradi.

Demak, maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatiga klaster tizimini joriy etish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak:

- MTT bo'yicha malaka talablari, o'quv rejaları va dasturlarini takomillashtirish;
- tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;
- oliy ta'lim muassasalarini bitirgan ta'lim oluvchilarni ta'limning keyingi bosqichiga yoki MTT yo'naltirishga ko'maklashish;
- MTT huquq va majburiyatlarini belgilash;
- zamonaviy variativ darsliklar, o'quv qo'llanmalar, elektron vositalar yaratish;
- amaliy mashg'ulotlar, MTT sifatini oshirish uchun mustahkam moddiy-texnik bazani tashkil qilish;
- xorijiy tajribalardan foydalanish;
- MTT sohasini jahon talablari darajasida takomillashtirish va uning sifat va samaradorligini ta'minlash;
- samarali moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish;
- ta'lim muassasalari uchun sifat menejmenti tizimini yaratish; – nogironligi bor bolalarga MTT ta'lim olish imkoniyatini ta'minlash.

Klasterli tizim maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish ijtimoiy sohadagi mehnat bozori va ta'lim xizmatlari bozori o'rtasida dinamik muvozanatga erishishni talab etadi.

Buning uchun:

- maktabgacha ta'lim tizimida istiqbolli mehnat bozorining ehtiyojlariga qaratilgan innovatsion tarmoq infratuzilmasini yaratish;
- maktabgacha ta'lim sifatini oshirish;



– yosh kadrlar oqimini ijtimoiy sohaga yo‘naltirish kerak. Mazkur fikrlardan kelib chiqib aytish joizki, maktabgacha ta‘lim tizimida klaster tizimini joriy etish quyidagi natijalarga olib keladi:

– MTT malakaviy xodimlarga, axborotlarga va ta‘lim muassasalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanishlari sababli maktabgacha ta‘lim samaradorligini oshirishga imkoniyatlar yaratiladi;

– ta‘lim va ilmiy-tadqiqot markazlari yangi ilmiy-uslubiy ishlanmalar yaratishi, ularni qisqa muddatda MTTdan tajriba-sinovdan o‘tkazishi, amaliyotga joriy etishi uchun shart-sharoitlar yuzaga keladi;

– maktabgacha ta‘limga raqobatbardosh yosh kadrlar tayyorlanadi;

– MTT.ga tayyor mahsulotlar va xizmatlar yetkazib beriladi.

Ta‘kidlash lozimki, ta‘lim klasteri deb, maktabgacha ta‘lim, maktab, professional ta‘lim, oliy ta‘lim muassasalari hamda ta‘limni tashkil etish jarayonida bir-biriga bog‘liq bo‘lgan ta‘limiy, ilmiy, ijtimoiy, texnologik va ishlab chiqarish tashkilotlarini bir maqsad yo‘lida birlashtirgan muvofiqlashgan faoliyatga ega bo‘lgan tizimga aytiladi.

Agar klaster tizimi maktabgacha tarbiya tizimiga tatbiq etilsa, quyidagi manfaatlarga erishish mumkin:

Davlat manfaati – raqobatbardosh kadr yetishib chiqadi, ish sifati yaxshilanadi, mahsulot sifati oshadi, migratsiya masalalari ijobiy hal bo‘ladi, iqtisodiy o‘sish yuzaga keladi.

Ta‘lim muassasasi manfaati – ta‘lim sifati va samaradorligi oshadi, o‘quvchining bandligi ta‘minlanadi, Ustoz-shogird an‘analari rivojlanadi, sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhit shakllanadi, o‘quvchilarning ma‘naviy dunyoqarashi mustahkamlanadi.

Mahalla manfaati – yoshlar bandligi ta‘minlanadi, ishbilarmonlik taraqqiy etadi, yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati rivojlanadi.

Ota-onalar manfaati – iqtisodiy barqarorlik, bandlik, turli xil oqimlarga kirib ketishning oldi olinadi, qadriyatlar tiklanadi, ota-onani hurmat qilish, ularni qadriga yetish, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi xususiyatlar rivojlanadi.

Tarbiyalanuvchi manfaati – jamiyatga kerakli shaxs bo‘lib yetishadi, malakali mutaxassisga aylanadi, qo‘shimcha daromad olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari manfaati – moddiy ta‘minot bazasi kengayadi, sifatli kadr tayyorlanadi, ishlab chiqarish, tadbirkorlik rivojlanadi, iqtisodiy ta‘minot yaxshilanadi.

Hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlarda klasterli yondashuv turli sohalarni, shu jumladan ta‘limni rivojlantirishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi.

Klaster strategiyasi raqobatbardoshlikni oshirish bo‘yicha davlat siyosatining eng talab qilinadigan vositalaridan biridir.

Klaster yondashuvi pedagogik jarayonda, ya‘ni maktabgacha ta‘lim shartlari bo‘yicha, hali o‘z darajasida qo‘llanilmagan.

O‘qituvchi va tarbiyachilarning metodik klaster orqali maktabgacha ta‘limga tayyorligini shakllantirish bu masala bo‘yicha tajribani bosqichma-bosqich aktualizatsiya qilish, farqlash, integratsiyalashuvini va individualizatsiyasini ta‘minlaydi.

Klaster yondashuvning tasdiqlanishi muallif nuqtai nazaricha pedagogik texnologiyalarning tom



ma'no va mazmunini bilish, uslubiy yondashuv, o'qitish jarayonlarini muvofiqlashtiri asosida maktabgacha ta'limni rivojlantirishda maktab bilan hamkorlik va logistik imkoniyatlarni muvofiqlashtirish negizida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Maktab va MTT klasteri doirasida o'quv maqsadlariga erishishda qo'llaniladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarning tom ma'no va mazmunini bilish, uning asosida har bir fan, darsning loyihasini tuzib chiqish uchun har bir pedagog-o'qituvchi va tarbiyachi tizim nazariyasini to'la egallab olishi zarur. Bizning nazarimizda bu o'rinda tizimli klaster tushunchasining mohiyatini batafsil yoritib o'tish maqsadga muvofiqdir. Tizimli klaster deganda, o'zaro funksional bog'liq bo'lgan qismlardan tashkil topib, bir butunlikni tashkil qiluvchi narsa yoki hodisalarga aytiladi. Ob'ektiv borliqdagi barcha narsa va hodisalarga ham tizim deb qarasa bo'ladi. Uyg'unlik nazariyasidan kelib chiqadigan tizimli yondashuv tamoyilining o'ziga xos, ancha murakkab qonun va qoidalari mavjud.

Har qanday tizim ikki yoki undan ortiq qismdan iborat bo'lib, ayni vaqtda o'zi ham, o'zidan yuqori pog'onada turgan tizimga qism bo'lib kiradi. Uning qismlari bir pog'ona pastdagi tizimlar hisoblanib, ular ham bir necha qismlardan iborat bo'ladi. Bu hodisa chekli va cheksiz bo'lishi mumkin.

Tizimni tashkil qiluvchi qismlar deb faqat o'zaro uzviy (funktional) aloqadorlikda bo'lgan qismlarga aytiladi.

Tizimli klasterni tashkil qiluvchi qismlarning bir xususiyati o'zgarasa, shu tufayli boshqa qismlarning ham xususiyatlari o'zgarishlarga uchrasa, uni funksional aloqadorlik deyiladi.

Tizim xususiyatlari faqat boshqa tizimlar bilan aloqadorlikda namoyon bo'ladi.

Aloqadorlik deb, tizimni shakllantirish xususiyatiga aytiladi. Yangi aloqadorlik xususiyati funktsiya deyiladi.

Har qanday tizim asosini aloqadorliklar tashkil qilib, ular o'z asoslariga nisbatan tartibli va tartibsiz, harakatchan va statsionar, qarama-qarshi va ko'p tomonlama, nuqtaviy, chiziqli, tiklanuvchan va tiklanmaydigan, oddiy va murakkab, determinlashgan, markazlashgan va markazlashmagan, bir hamda ko'p pog'onali hamda hokazo tarzda bo'ladi.

Har bir ishda tizimlar nazariyasidan kelib chiqishlikni tizimli yondashuv tamoyili deyiladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning an'anaviy dars berish uslublaridan asosiy farqi ham darsni bir-biri bilan funksional aloqadorlikda bo'lgan bir necha qismlardan iborat bir butunlik – tizimlilik deb qarashdir.[1]

Xulosa qilib aytganda, uzluksiz ta'limda innovatsion ta'lim klasterini joriylantirish va uning o'ziga xos imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslab berish jamiyatda ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan hisoblanadi.

Shunday qilib, olib borilgan nazariy tahlil maktab va MTT ta'limda klaster yondashuvining samaradorligini va mintaqaviy ta'lim klasteri sifatida pedagogik innovatsiyalarni yaratish vazifasini muvaffaqiyatli bajarayotganini va bu sohaning rivojlanishiga hissa qo'shayotganini ta'kidlash imkonini beradi. Klaster yondashuvining mohiyatini tushunish va amaliyotga tatbiq etish ta'lim tizimini rivojlantirish, uning sifati va raqobatbardoshligini oshirish uchun yangi resurslar va imkoniyatlarni izlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Ta'lim klasteri ta'lim xizmatlarini yaratishga emas, balki bozorda rivojlanayotgan iqtisodiy vaziyatning doimiy o'zgaruvchan sharoitlarida raqobatlasha oladigan va darajalari bilan



tavsiflangan shaxsni tayyorlashga qaratilgan maktab va MTT hamkorligida o'quv jarayonlarni sifatli tashkillashtirish hamda ta'lim va tarbiya logistikasiga bog'liq degan xulosaga kelishimiz mumkin.

REFERENCES

1. Buga P., Karpov B. *Texnologii obucheniya v visshey shkole.* // Vestnik visshey shkoli, 1992, № 11, -S. 15-17.
2. Jumayevich, E. N., & Talipjanovna, M. N. (2023). Characteristics of implementing the cluster approach in the educational system. *International Journal of Pedagogics*, 3(02), 44-47.
3. Ходжамкулов, У. Н., Мадгапилова, НТ (2020). Необходимость и условия формирования кластера педагогического образования (на примере системы образования Узбекистана). *Европейский журнал исследований и рефлексии в образовательных науках*, (8), 4.
4. Madgapilova, N. T. (2023). Social-psychological cooperation of educational organizations and theoretical basis of the cluster approach. *Экономика и социум*, 11(114), 554-560.
5. Madgapilova, N. T. (2022). Kasbiy kompetentlik o'rganish ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida. *Development and innovations in science*, 1(1), 7-12.
6. Madgapilova, N. T. (2022). Bolajak harbiy xizmatchilarda kasbiy kompetentlikning ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarda organilganligi. *Eurasian journal of social sciences philosophy and culture*, 1(1), 129-132.
7. Madgapilova, N. T., Shermetova, Z. J. (2022). Maktab va maktabgacha ta'lim tashkiloti tizimida ijtimoiy sheriklikni amalga oshirish usullari va vositalari. *Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya*, 1(7), 6-9.
8. Madgapilova, N. T., Rizayeva, U. V. (2022). Klaster yondashuviga asoslangan ijtimoiy sheriklikning pedagogik innovatsion logistikasi modeli. *Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya*, 1(4), 4-7.
9. Madgapilova, N. (2021). Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasining oiladagi o'rni. *Scientific progress*, 2(8), 653-655.
10. Dilmurodova, Z. D. (2023). Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning psixologik xususiyatlari va ularning qobiliyat darajalari aniqlash. *Научные исследования и общественные проблемы*, 1(1), 33-37.
11. Dilmurodova, Z. (2023). Bola qobiliyatini barvaqt aniqlash muhim!. *Youth, science, education: topical issues, achievements and innovations 2023 Prague, Czech*.
12. Khayitbayevna, U. B. (2023). New Uzbekistan: A New Education System and a New Approaches Basis of Educational Development. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(11), 745-749.
13. Khaitbaevna, U. B. (2022). Theoretical and methodological basis of organizing qualified pedagogical practice. *Current research journal of pedagogics*, 3(07), 15-22.
14. Ganiev, I. D. (2023, July). Basic Requirements For Educational Electronic Resource. In *Creativity and Intellect in Higher Education: International Scientific-Practical Conference* (pp. 138-139).

15. Уразимбетова, Б. (2022). Talabalarning uzluksiz pedagogik amaliyotini tashkil etishning aytim dolzarb masalalari. Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире, 1(4).
16. Bekmurodovna, Z. D. (2022). Matematik tushunchalarning ta'riflash metodikasi. Journal of new century innovations, 11(5), 173-175.
17. Dilmurodova, Z. D. (2022). Psixologiyada qobiliyat muammosi. Актуальные проблемы обучения, 1(2), 15-25.

